

HURMATLI AKSIYADOR!

“O‘zbekiston pochta” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2022 yil 2 noyabr kuni soat 11:00 da masofadan turib elektron ovoz berish tizimi www.evotuz.uz orqali o‘tkaziladi.

Aksiyadorlarni ro‘yxatga olish soat 09:00 dan 11:00 gacha amalga oshiriladi. Umumiy yig‘ilish o‘tkazish uchun jamiyat aksiyadorlari reyestri 2022 yil 27 oktyabr holatiga tuziladi.

Jamiyatning elektron pochta manzili: info@poshta.uz

Yig‘ilish kun tartibi:

1. “O‘zbekiston pochta” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti va Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq majburiy tashqi auditni o‘tkazish maqsadida 2022 yil uchun auditorlik kompaniyasini tanlash va uning xizmatiga to‘lanadigan haq miqdorini belgilash to‘g‘risida.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida qatnashish va ovoz berish uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat, aksiyadorlar vakillarida esa qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo‘lishi lozim.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishda qatnashish va kun tartibidagi masalalar bo‘yicha masofadan turib ovoz berish uchun id.gov.uz da belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tishlari shart. Elektron ovoz berish www.evotuz.uz veb-sayti orqali amalga oshiriladi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi bo‘yicha ma‘lumot va hujjatlar bilan “O‘zbekiston pochta” AJ bosh ofisida ushbu e‘lon berilgan kundan boshlab yig‘ilish o‘tkaziladigan kunga qadar soat 10:00 dan 17:00 gacha yoki www.evotuz.uz veb-sayti orqali tanishish mumkin. Ma‘lumot uchun telefon: +998 71 232-00-33

“O‘zbekiston pochta” AJ Kuzatuv kengashi